

**TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING NAZARIY,  
AMALIY-TASVIRIY JIHATDAN PUXTA BILIM OLISHIGA ERISHISH VA  
BU JARAYONDA O'QITUVCHINING IZLANUVCHANLIGI MASALASI**

Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbekiston

**Tog'aev Keldiyor Xamidovich**

[keldiyortogayev@gmail.com](mailto:keldiyortogayev@gmail.com) (+998936605302)



**Qahramanova Charos Axmadjon qizi**

[charosqahramanova985@gmail.com](mailto:charosqahramanova985@gmail.com)

(+99890 500 41 94)



**Annatatsiya:** Ushbu maqola Tasviriy san'at fanini o'qitishda o'quvchilarning nazariy, amaliy-tasviriy jihatdan puxta bilim olishiga erishish va bu jarayonda o'qituvchining izlanuvchanligi masalasi va «Tasviriy san'at metodikasi» fanining maqsad va vazifalari, ilmiy tadqiqot bosqichi va metodlari, mashg'ulotlarining mazmuni va metodikasi, ta'lif dargohlarida tashqari ishlar mazmuni kabi masalalar o'z aksini topganligi haiqda.

**Kalit so'zlar:** Milliy san'at, o'quv materiallari, san'at sirlari, amaliy mashg'ulotlar, takomillashtirish.

**Annotation:** This article aims to achieve theoretical, practical and descriptive knowledge of students in the teaching of fine arts and the question of the teacher's curiosity in this process and the goals and objectives of the science "Methodology of fine arts", the stage of scientific research and It is true that such issues as methods, the content and methodology of training, the content of extracurricular activities in educational institutions have been reflected.

**Key words:** National art, educational materials, secrets of art, practical training, improvement.

**Аннотация:** Данная статья направлена на достижение глубоких теоретических, практических и описательных знаний учащихся в области преподавания изобразительного искусства, а также вопрос любознательности учителя в этом процессе, а также целей и задач науки «Методология изобразительного искусства», этап научных исследований и верно, что нашли отражение такие вопросы, как методы, содержание и методика обучения, содержание внеклассной деятельности в образовательных учреждениях.

**Ключевые слова:** Народное искусство, учебные материалы, тайны искусства, практика, совершенствование.

## Kirish

Tasviriy san'at fani bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda «Tasviriy san'at metodikasi» maktablarda o'rganiladigan maxsus o'quv fanlardan biri bo'lib, u bo'lajak oliy ta'lim muassasalari talabalari tasviriy san'atdan amaliy mashg'ulotlarda metodik jihatdan tayyorgarligini takomillashtirishning muhim omilidir. Bu nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarni badiiy-kasbiy bilimini, malaka va mahoratini shakllantirishga hamda ularni maktab o'quvchilari va pedagogika ta'lim-tarbiya berish jarayonida qo'llashga va o'rgatishga qaratilgan.

Milliy dasturda ko'zda tutilganidek, o'quvchilarning estetik ongini shakllantirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalgalashda, ayniqsa, tasviriy san'atdan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Inson qadim-qadimdan san'at vositalari yordamida o'z hayotini go'zal qilishga intilgan. Buni anglash uchun avlodlarimizdan meros qolgan me'moriy-madaniy yodgorliklar va tasvirlarga diqqat bilan nazar tashlash kifoya qiladi.

Ularning barcha-barchasini rassom, me'mor mehnati mahsuli deyishimiz mumkin. Siz ham qo'lga qalam oldingiz. Istagingiz biror-bir narsani, voqeа yo'ki hodisani qog'ozga tushirish. Lekin yuragingizni to'lqinlantirgan, chizishga undagan go'zallik tasviri o'ziga o'xshash chiqmadi. Bu jarayonda qalamni tashlab yuborishga shoshilmang. Sizda, eng avvalo, istak va shijoat bor. O'zingizda ozgina chidam va qunt topishga erishsangiz, sizdan ajoyib musavvir chiqishiga imonimiz komil.

Buning uchun diqqatingizga havola etilayotgan kitobni diqqat bilan o'qib chiqing. Xotira va tasavurdan chizish uchun tavsiya qilinayotgan asosiy qoida va usullarga e'tibor bering. Biz tavsiya etayotgan usullarni o'zingiz odat qilgan usullar bilan solishtiring. Zero, dunyo tan olgan, o'zidan o'lmas asarlar qoldirib ketgan buyuk musavvir Leonardo da Vinchi «Amaliyotga ilmsiz mehr qo'yadigan kishilar rulsiz yoki kompassiz suzishga kirishayotgan daholarga o'xshaydilar, chunki ular qayerga ketayotganlarini hech mahal bilmaydilar, shu sababli oldin ilmni o'rgan, so'ngra esa shu ilm orqasidan tug'ilgan amaliyotga murojaat qil» deya bejiz ta'kidlamagan edi.

**Asosiy qism:** Tasviriy san'at fanini o'qitishda o'quvchilarning nazariy, amaliy-tasviriy jihatdan puxta bilim olishiga erishish va bu jarayonda o'qituvchining izlanuvchanligi masalasi quyidagicha: Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilarini shakllantirish uchun bu sohadagi barcha amaliy hamda nazariy bilimlar ta'lim sifatida zarur. Bular, asosan, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, amaliy bezak san'ati, haykaltaroshlik, san'at tarixi va eng asosiysi, bu bilimlarini o'rgatishning metodik asoslarini egallash hisoblanadi.

Ta'lim mazmunidagi bu bilimlarni egallash vositasida bo'lajak o'qituvchi o'z sohasining ustasi bo'libgina qolmasdan, balki ana shu san'at sirlarini o'quvchi va yoshlarga ularsha olish malakasiga ega bo'ladi. Tasviriy, amaliy san'at ta'limi va

tarbiyasi mazmunida milliy san'at merosimiz bilan birgalikda umum badiiy ta'limshunosligi va uslubiyatiga tayanish lozim. Yosh pedagog tayyorlashda ta'lim mazmunining muhim yo'naliishlari, umum badiiy va milliy an'analarning ustuvorligiga amal qilishi darkor.o'qitishning asosiy talablari uchun zaruriy shartlar esa tasviriy va amaliy san'at sirlarini o'zlashtirish bilan birga o'quvchi va yoshlarga har jihatdan o'rgata olish usullarini egallashdir.

Pedagog rasm bu mustaqil ahamiyatga ega bo'lmagan holda pedagogning o'yfikrlarini tushuntirish so'zi bilan bir qatorda grafik holda ifodalash vositasidir. Bu yerda o'quv materialini tushuntirish bosh o'rinni egallaydi, pedagog rasm esa uni to'ldiruvchidir. Shu uchun pedagog rasm chizilayotgan qog'ozda yoki doskada bajarilishi mumkin. Bu yerda eng asosiy narsa uning uslubiy yo'naltirilganligi bosh o'rinni egallaydi. Pedagogik rasm o'rganuvchining chizayotgan ishi chetiga o'qituvchi tomonidan tez, ishonarli tarzda hamda uning tushuntirish so'zi bilan to'ldirilgan holda bajarilishi mavzuni aniq, to'liq tushunib olishga imkon yaratadi.

O'qituvchi talabaning o'rniga o'tirib, ishni bajarish ketma-ketligini, uni konstruktiv qurilishini, soya-yorug'liklarini shtrixlar asosida berishni ko'rsatishi o'rganuvchining ijodiy rivojlanishini nafaqat rivojlanadir, balki aksincha to'sib qo'yadi. Uni o'z kuchiga ishonmaslik holatini keltirib chiqaradi. Bundan kelib chiqadiki, pedagogik jarayonda o'qituvchining so'zi eng asosiy o'rinda bo'lib rasm esa to'ldiruvchi vosita hisoblanib, o'rgatishda muhim o'rinni egallaydi. Sinf doskasida rasm chizish bo'lajak rassom-pedagoglar uchun muhim ahamiyatga egadir. Doskada rasm chizish ko'rgazmalilik prinsipining muhim vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Yangi mavzuni og'zaki tushuntirish bilan bir qatorda qisqa muddat ichida chizilgan tasvir o'quvchilarni idrok qilish jarayonini tezlashtiradi.

Chizuvchi doskada shakllarning tuzilish qonuniyatlarini, naturani chizish ketma-ketligini chizib ko'rsatishi zarurdir. Biroq doskada tez, malakali rasm chizish o'qituvchidan bir qator maxsus mashqlarni bajarishni bu sohada yetarli ko'nikma va malakaga ega bo'lishni talab etadi. Bu uchun talabada, eng avvalo, qalamtasvir darslarida olgan bilimlarini amalda namoyish etish zaruriyati tug'iladi. Ma'lumki qalamtasvir darslarida chiziladigan barcha naturalar ma'lum ketma-ketlik asosida tasvirni qurishni talab qiladi. Sinf doskasida rasm chizish ham xuddi shunday ma'lum ketma-ketlikka rioya qilishni talab etadi. Tasvirni qurish usullarini yaxshi bilish chizuvchining doskada rasmni ishonchli, tez va aniq chiqishi imkonini beradi.

Xotira va tasavvur asosida rasm chizish ko'nikma va malakalarini egallash bu o'rinda muhim ahamiyatga egadir. O'z mohiyatiga ko'ra doskada rasm chizish turlari quyidagilardir: chiziqli rasm, shtrixli rasm, rangli rasm, tusli rasm. Chiziqli rasmda tasvir bir xil qalinlik soya-yorug'liksiz ko'rsatiladi. Shtrixli hajmda esa rasm chizilayotgan rasmda chiziqli rasm soya yorug'liklar vositasida hajm berishga, ya'ni

asosiy soya-yorug‘liklar ko‘rsatiladi. Rangli rasmida chiziqli rasm rangli bo‘rlar yordamida asosiy rang holatlari ko‘rsatiladi.

Tusli rasmida esa tasvirning yorug‘ joylari qo‘l, ho‘llangan latta yordamida yorug‘ joylari olinadi. Doskada rasm chizishning muhim bir jihatni tasvirda chiziqlarning turli yo‘g‘onlikda bo‘lishi, shtrix, tus nuqtalardan foydalanishdir. Pedagogik rasm chizish nafaqat sinf doskasida, balki qog‘ozda sous, pastel, ko‘mir, akvarel, tush kabi materiallarda ham chizib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Tasviriy san’at o‘qituvchisiga dars paytida sinf doskasida bo‘r bilan maishiy buyumlar, o‘simpliklar, qushlar, hayvonlar va odam rasmini xotira bo‘yicha bajarishga to‘g‘ri keladi.

U chizgan rasmlar ixcham, ifodali va savodli bo‘lishi kerakki, o‘quvchilar u yoki bu predmet tasvirini timsoliy qabul qila olsin. Shu bois har bir talaba bilim olish davrida sinf doskasida pedagogik rasm chizish texnikasini egallab olishi zarur. Bu jarayonda qisqa muddatli, shtrixli, ancha yirik o‘lchamli turli predmetlarning xomaki rasmlarini chizish tavsiya etiladi. Albomlarda bajarilgan qisqa muddatli rasmlar kuzatuvchanlikni o‘stiruvchi, atrofimizdagи borliqdan tipik va xarakterli bo‘lgan belgilarni topa olishni rivojlantiruvchi, kompozitsiya mazmunini boyituvchi materiallar bo‘lishi bilan muhimdir. Ko‘pincha xayolan bajarilgan biron bir motiv xomaki rasm kompozitsiyasini hal etishda asosiy rol o‘ynaydi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma pedagogika maktab o‘quvchilar uchun mo’lljallangan bo‘lib, «Tasviriy san’at metodikasi» fanining o‘quv dasturi asosida yozilgan. Mazkur o‘quv qo‘llanmada «Tasviriy san’at metodikasi» fanidan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar vazifasini tayyorlash va uni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar yoritiladi. Qo‘llanmani tayyorlashda fanning namunaviy dasturi va ko‘rsatmalariga, shuningdek, ko‘p yillik tajribaga asoslandik.

Metodika ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ishslash usullarining, mazmunining xususiyatlarini qarab chiqadi. Ma’lumki, o‘qitish jarayonida xilma-xil metodlar qo‘llaniladi. Bu yerda ta’lim usuli, o‘quv materiallarining joylashishi (o‘quv rejasi, dasturi), ta’lim tamoyillari va o‘quv-tarbiyaviy ishlarining umumiyligi maqsad va vazifalari eng muhim ahamiyatga egadir.

«Metodika» so‘zining ma’nosi, avvalo, ta’lim va tarbiyadagi samarali usullarining majmuyi hisoblanadi. Tasviriy san’at metodikasi oldida pedagogika fanining tarmog‘i sifatida quyidagi vazifalar turadi:

1. Tasviriy san’at metodikasining aniq maqsadlari va uning fan sifatida bilim berish ham da tarbiyaviy ahamiyatini aniqlash.
2. Tasviriy san’at metodikasining mazmuni va tuzilishini aniqlash.
3. O‘quvchilaring chuqur bilim, ko‘nikma va malakalarini egallahda eng samarali uslub, vosita va shakllarini ishlab chiqishi.

4. O'quvchilarning bilim olish jarayonini kuzatish va tadqiqot ishlarini olib borish.

Tasviriy san'at metodlari deganda, o'qituvchining o'quvchilar bilan ishslash usullari natijasida o'quv materiallarini yaxshi bilib olish darajasiga erishish va o'zlashtirish darajasining oshirilishi nazarda tutiladi. Har bir o'qitish metodlari o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlar mazmuni (hajmi)ga monand tarzda ta'lim maqsadiga, o'quvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlariga bog'liq. O'qitish usulibu ta'lim -tarbiyaning alohida qismlari hisoblanib, ularning yig'indisi o'qitish metodlariga kiradi.

**Xulosa:** O'rgatish san'ati amaliy mashg'ulotlar mobaynida uzoq ijodiy mehnat orqali egallanadi. Demak, tasviriy san'at metodikasi pedagogika ilmida o'quvchilarni tasviriy san'atga o'rgatish mazmuni, vazifa va metodlarini aniqlovchi, ijodiy ishlaridagi oqilona usullarni o'rganuvchi, ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalariga tayangan holda samaarali o'quv jarayonini tashkil etuvchi, shakl va yo'llarini tadqiq etuvchi sohasidir. Tasviriy san'at metodikasi o'qitish metodikasining boshqa sohalari kabi umumiy va xususiy larga ajratiladi.

#### Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Tog'ayev K. X. TASVIRIY SAN'AT VA UNING MOHIYATI, TUR VA JANRLARI //Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 44-50.
2. I.Gadoyev. «Talabaning fazoviy tasavvurini va mantiqiy fikrlashni takomillashtirish» Xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqot jurnali Hindiston. Infofaktor jurnal 2020 yil 12 dekabr, 10 jildi
3. K. Tog'ayev. «Umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitishda amaliy san'at darslarining o'rni va zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari». Ko'p o'lchovli osiyo tadqiqot jurnali AJMR Eron 2021 yil 5 May,
4. Келдиёр Хамидович Тогаев ТАСВИРИЙ САНЪАТДАГИ МАНЗАРА КОМПОЗИЦИЯСИ ЖАНРИГА ОИД АСАРЛАРИ ИНСОНДА ТАБИАТГА ВА ГУЗАЛЛИК ФАЗИЛАТЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШ // Oriental Art and Culture. 2023. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tasviriy-sanatdagi-manzara-kompozitsiyasi> zhanriga-oid-asarlari-insonda-tabiatga-va-guzallik-fazilatlarini-shakllantirish (дата обраще)
5. Dilmurod Xolmamatovich Axmedov xorijiy tajribalardan tasviriy san'at tizimini takomillashtirishning ijtimoiy pedagogik tarixi va asoslari // Oriental Art and Culture. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tajribalardan-tasviriy-san-at-tizimini-takomillashtirishning-ijtimoiy-pedagogik-tarixi-va-asoslari> (дата обращения: 22.09.2023).

6. Shovdirov, S. B.B. Boymetov Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts International Journal on Integrated Education.
7. Niyazovich g. I. Ways of use of modern innovative technologies in fine arts classes and through the improvement of ideas of national independence to students //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – C. 234-237.

